

NEYRON MASHINA TARJIMASINING IDIOMALAR VA METAFORALARNI TO'G'RI TALQIN QILINISHI

Xaitbayeva Jasmina Adixomjon qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 4-kurs talabasi,

Xamidova Mohinaxon Alisherovna

Ilmiy rahbar: Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

"Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrası katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18014164>

Annotatsiya:

Ushbu maqolada so'nggi yillarda neyron mashinali tarjima (Neural Machine Translation – NMT) tizimlari tarjima sifatini sezilarli darajada oshirilganini va shunga qaramay, ushbu tizimlar hali ham tilning ko'chma ma'noli birliklarini, xususan idiomalar va metaforalarni to'g'ri talqin qilishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelayotganini taxlil qilamiz. Idioma va metaforalar tilning madaniy va pragmatik qatlamiga mansub bo'lib, ularning ma'nosi alohida so'zlarning yig'indisidan kelib chiqmaydi. Shu sababli NMT tizimlarida bu birliklar ko'pincha lug'aviy (literal) tarzda tarjima qilinadi.

Kalit so'zlar: neyron mashina tarjimasi, tarjima jarayoni, cheklovlar, matnlar.

Abstract. This article assumes that neural machine translation (Neural Machine Translation – NMT) systems have significantly improved the quality of translation in recent years, and yet these systems still have certain difficulties in correctly interpreting portable meaningful units of language, in particular idioms and metaphors. Idioms and metaphors belong to the cultural and pragmatic layer of language, the meaning of which does not come from the sum of individual words. For this reason, in NMT systems, these units are often translated in a lexical (literal) way.

Keywords: neural machine translation, translation process, limitations, texts.

Аннотация. В этой статье мы анализируем, что системы нейронного машинного перевода (Neural Machine Translation – NMT) значительно повысили качество перевода за последние годы, и тем не менее, эти системы все еще сталкиваются с определенными трудностями в правильной интерпретации переносных смысловых единиц языка, особенно идиом и метафор. Идиомы и метафоры относятся к культурно-прагматическому пласту языка, значение которого не вытекает из суммы отдельных слов. По этой причине в системах NMT эти единицы часто переводятся словарным (буквальным) способом.

Ключевые слова: нейронный машинный перевод, процесс перевода, ограничения, тексты.

Kirish

E. A. Nida o'zining "Toward a Science of Translating" asarida tarjimani manba tilidagi xabarni qabul qiluvchi tilga eng tabiiy ekvivalent shaklda qayta ifodalash deb ta'riflaydi.

Shuningdek, J. C. Catford A Linguistic Theory of Translation asarida tarjimani bir tildagi matnni boshqa tilda ekvivalent matn bilan almashtirish jarayoni deb izohlaydi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada yuqorida keltirilgan muammolarni ko'rib chiqamiz.

Bugungi kunda tarjima sohasining rivoji davlat siyosati darajasida e'tiborga olinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-maydagi PQ-4312-son qarorida shunday deyiladi;

“Chet tillarni o'rganishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorda chet tillarni o'qitishda ilg'or tajribalarni joriy etish, tarjima madaniyatini yuksaltirish va milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuvlarni rivojlantirish vazifasi belgilangan.

Tarjima jarayoni nafaqat so'zlarni bir tildan boshqasiga o'tkazish, balki madaniy, ruhiy va kontekstual ma'nolarni yetkazish jarayonidir. Ayniqsa mashina tarjimasida keng axamiyat qaratishimiz zarur.

Asosiy qism

1. Madaniy realialarni tarjima qilishdagi xatolar.

Realialar – bu milliy-madaniy hodisalar, tushunchalar yoki buyumlar bo'lib, ular boshqa tilda ekvivalentga ega emas. Peter Newmark (1988, p. 39) ta'kidlaganidek, “kommunikativ tarjima o'quvchida asl matn o'quvchisiga yaqin ta'sir uyg'otishga intiladi”. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ba'zi misollarda, misol uchun: “Qishloq chetida **choyxona** bor edi, chol **ko'rpa** ustida o'tirardi”.

“There was **a teahouse** on the outskirts of the village, and the old man was sitting on the **blanket**”.

“There was a **traditional teahouse** (Choyxona) on the outskirts of the village, and the old man was sitting on **a quilted mat** (Ko'rpa)”.

Choyxona oddiy “teahouse” emas (zamonaviy kafe ma'nosida); u erkaklar yig'iladigan madaniy markaz. Ko'rpa (“blanket”) esa bu yerda yotish uchun mo'ljallangan yopinchiq emas, balki an'anaviy o'tirish joyi (ko'rpacha/kurpacha) ma'nosida kelgan. Madaniy kontekst buzilgan.

“U **Navro'z** bayramida **sumalak** pishirdi”.

“She cooked **Sumalak** during **the Navruz** holiday”.

“She cooked a thick, wheat-sprout pudding called Sumalak for the Persian New Year (Navruz)”.

NMT so'zlarni transliteratsiya qilgan (yaxshi, chunki ularning ekvivalenti yo'q), lekin qabul qiluvchi o'quvchi uchun izoh (semantic description) bermagan.

2.1. Metafora va idiomalarni tarjima qilishdagi xatolar

NMT tizimlari ko'pincha ko'chma ma'nolarni lug'aviy (literal) tarjima qiladi. Bu esa idiomalarni va metaforalarni tarjima qilayotganda manosini chiqarib berolmaydi. Mona Baker [2011, p.230] ta'kidlaganidek, tarjimada faqat aytilgan narsani emas, balki nimani nazarda tutilganini ham hisobga olishi kerak. Misol uchun: Asl matn: He kicked the bucket. Lug'aviy tarjima (NMT xatosi): U chelakni tepdi. To'g'ri, ma'noga asoslangan tarjima: U vafot etdi / u olamdan o'tdi. Bu yerda NMT so'zma-so'z tarjima qiladi, lekin idiomaning haqiqiy ma'nosini anglamaydi. Va sgunga o'xshash yana bir tarjima: Asl matn: She spilled the beans. Lug'aviy tarjima: U loviyalarni to'kib yubordi. To'g'ri tarjima: U sirni oshkor qildi.

2.2 Metaforalar

Misollar: Asl matn: Time is running out. Lug'aviy tarjima: Vaqt yugurib chiqib ketmoqda. To'g'ri tarjima: Vaqt tugab bormoqda. → Metafora (vaqt = harakatlanayotgan narsa) literal tarjimada sun'iy va g'alati eshitiladi. 2-misol: Asl matn: He has a heart of stone. Lug'aviy tarjima:

Uning yuragi toshdan. To'g'ri tarjima: U rahmsiz / u juda sovuqqon. Xuddi shunday misollar faqat o'zbek tilidan ingliz tiliga o'girilgan. Misol uchun: Asl matn: U gapni aylantirib aytdi. NMT lug'aviy tarjimasi: He said the words by turning them around. To'g'ri tarjima: He spoke indirectly / He avoided saying it directly. Asl matn: Uning boshi osmonga yetdi. Lug'aviy tarjima: His head reached the sky. To'g'ri tarjima: He was extremely happy / He became very proud.

Xulosa

NMT tizimlarida ko'pincha so'z darajasidagi moslikka tayanadi, madaniy kontekst va pragmatik ma'noni to'liq anglay olmaydi, ayniqsa kam uchraydigan idiomalar va metaforalarda xatoga yo'l qo'yadi. Bu shuni anglatadiki NMT tizimlari idiomani kompozitsion birlik sifatida emas, alohida so'zlar yig'indisi sifatida ko'radi; ko'chma ma'noni aniqlash uchun yetarli pragmatik va madaniy bilim ega emas; natijada tarjima grammatik jihatdan to'g'ri, ammo semantik jihatdan noto'g'ri bo'lishi mumkin. Shu sababli bunday birliklar uchun idiomatik lug'atlar, kontekstga asoslangan qayta tarjima, yoki inson muharriri (post-editing) talab etiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.
2. Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A Practical Introduction. Oxford: Oxford University Press.
3. E. A. Nida, "Toward a Science of Translating". Leiden: Brill. (1964).
4. J. C. Catford A Linguistic Theory of Translation. London: Prentice Hall. (1988).
5. O'zbekistoon Respublikasi Prezidentining' Chet tillarni o'rgatishni yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida ". 2019-yil 20- maydagi PQ- 4312-son qarori
6. P. Newmark, "A Textbook of Translation". London: Prentice Hall. (1988).
7. M. Baker, In Other Words:" A Coursebook on Translation". Routledge. (2011).